

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Mundarija

Lingvistika

Shuhrat Hayitov

Bobur asarlarining filologik tadqiqi.....6

Kamola Rixsiyeva

Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili19

O'razova Iqbol

Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning II yarmi manbalari asosida)28

Mamarajabova Iroda

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti42

Ma'suma Mo'minova

Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi57

Israilova Saodat Turapovna, Dilnoza Jumanova

Diskurs va uning ilmiy talqini67

Zahro Abruyeva

Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili75

Shaxlo Baxodirova

"O'tgan kunlar" romanidagi lakunar birliklar88

Zarnigor Davronova

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida)100

Zarifa O'rinova

Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Tezauruslardagi shaxs otlarining paradigmaticasi125

Mirzayeva Go'zal

Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida132

Azizova Nilufar

"Devoni lug'otit turk"dagi "oziq-ovqat" semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish142

Content

Linguistics

Shukhrat Khaitov

A philologik study of Babur's works6

Kamola Rixsiyeva

Semantic web-based analysis of qa= based linguistic units19

Iqbol Urazova

Analysis of phrases with the term "state" in the old uzbek language
(Based on the sources of the second half of the 14th century)28

Mamarajabova Iroda

Development of lexemes with the concept of time in the straotürkic
language42

Ma'suma Mo'minova

Expression of national – cultural signs in phrases with a water
component57

Israilova Saodat Turapovna, Jumanova Dilnoza

Discourse and its scientific interpretation67

Zakhro Abrueva

Linguistic-cognitive analysis of social communication forms of
address75

Shaxlo Baxodirova

Lacunar units in the novel "O'tgan kunlar"88

Zarnigor Davronova

Linguistic features of anthroponym and related concepts in literary text
(based on the works of Abdullah Qadiri)100

Zarifa O'rinova

Aphorisms – as an intertextual unit113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Paradigmatics of personal nouns in thesauruses125

Go'zal Mirzayeva

About neurolinguistic research in world and Turkish linguistics132

Nilufar Azizova

Studying the lexical units of "food" in the "Devoni lugotit turk" based on
the semantic field142

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti

Iroda Mamarajabova¹

Abstrakt

Maqolada vaqt konseptini ifodalovchi lingvistik vositalarning mavjudligi ta'kidlanib, vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar eng faol vositalar sifatida qayd etilgan. Eski turkiy tildagi vaqt konseptli leksik vositalarning struktur-semantik taraqqiyoti, hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati yoritilgan. Vaqt konseptli ayrim leksemalar o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti davomida shakli va mazmun jihatidan o'zgarishlarga uchragan. Eski turkiy tilda vaqt konseptli o'z qatlam leksemalari faol qo'llangan. Turkiy leksemalardan yasalgan sodda leksemalar vaqt konseptini ifodalashga xizmat qilgan. Eski turkiy tildagi vaqt konseptli leksemalarning aksariyati hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi, arxaik birliklarga aylangan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida vaqt konsepti arabcha, forsha-tojikcha hamda rus-baynalmilal so'zlari orqali ifodalanadi.

Eski turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar bu birliklarning qadimiyligini, leksemalarning shakllanishida xalqning chorvachilik, dehqonchilik kabi turmush tarzi bilan bog'liq qarashlari, madaniy tafakkuri aks etganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *kognitiv lingvistika, konsept, vaqt konsepti, madaniy kod, tarixiy taraqqiyot, diniy omil, madaniy omil, makon va zamon birligi, shaxs omili, eski turkiy til, leksik vosita, leksema.*

Vaqtning bir qator turlari ham mavjud bo'lib, ular o'z navbatida ma'lum bir paradigma qanday tuzilganligi va murakkab vaziyatlar bilan o'zaro ta'sirini ta'kidlaydi. Vaqt biz dunyoni idrok qiladigan asosiy kategoriyadir. Vaqt tushunchasini o'rganish, eng avvalo, zamon xususiyatlarini muhokama qilishdan iborat. Shu munosabat bilan, falsafa, psixologiya va kognitiv lingvistika hamma vaqtning odamlarning vaqt tajribasi orqali obyektiv dunyo bilan bog'laydi, vaqt fazoviy harakatchanlik va hodisa xususiyatlariga egadir. Fazoviy vaqt xususiyatlari kognitiv tilshunoslikning dolzarb masalalaridan bo'lib, olib borilgan tadqiqotlarda til va idrok, ya'ni kognitiv kategoriyalar

¹ Mamarajabova Iroda – ToshDO'TAU doktoranti.

E-pochta: mamarajabovairoda088@gmail.com

Iqtibos uchun: Mamarajabova I. Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-2: 42-56.

va til kategoriyalari o'rtasidagi munosabatlarga oid yondashuvlar atroflicha tahlil qilingan.

Turkiy xalqlar ongida vaqt konseptosferasining shakllanishida turmush tarzi, madaniy taraqqiyot omillari muhim o'rin tutgan. Vaqtning umumlashgan konsepsiyasi materiyaning maishiy shakli sifatidagi aniq vaqt hamda uning inson ongidagi vaqt tushunchalari ko'rinishlari, ularning tildagi ifodasi bo'lgan lingvistik vaqtning o'z ichiga oladi (Boldirev 2012, 5).

Turkiy tilning eng rangin tillaridan biri bo'lgan o'zbek tilida ham bevosita temporal semantikaning salmoqli leksikasi mavjud. Bunday birliklar qadim ko'kturk bitiklaridan boshlab, Devoni lug'otit turk, Qutadg'u bilig, Alisher Navoiy asarlari, Boburnoma va boshqa bir qancha manbalarda o'z aksini topgan. Tilning taraqqiyot darajasi faqatgina undagi so'zlarning miqdoriga qarabgina belgilanmaydi, balki turli ma'no va stilistik ottenkalarini ifodalovchi so'zlarga, o'zaro aloqada fikrning turli-tuman va nozik ottenkalarini ifodalovchi vositalarga qanchalik boyligi bilan ham belgilanadi.

O'zbek tilidagi vaqt ma'noli leksemalar o'rganilgan (Hakimova 2004). Mavhum otlarning vaqt ma'nosini yoritish xususiyatlari tahlil etilgan (Hakimova 2019).

Eski turkiy til davridagi vaqt konseptli birliklar, asosan, sodda so'z ko'rinishida uchraydi. Ularning aksariyatini tub so'zlar tashkil etadi.

Eski turkiy til davrida vaqt konseptini ifodalovchi leksik vositalar shu davrda yaratilgan yozma manbalarda o'z ifodasini topgan.

Eski turkiy til manbalaridagi vaqt konseptini ifodalovchi birliklarning aksariyatini o'z qatlam so'zlari tashkil qiladi. Turkiy xalqlar muddat, vaqt tushunchasi eng qadimgi davrlardan boshlab ajratganlar va tushunchani nomlovchi alohida *öd* leksemasini qo'llaganlar:

Öd (turkiy) vaqt, zamon, davr: *öd kechar* zamon o'tar. Bu leksema turli semantik qiymatdagi "vaqt semalarini ifodalaydi. Hozirgi "vaqt-soat" ma'nosiga teng keladigan tushunchani aks ettirgan: *Ajıqlıy turur bu ölüm belgölüg, ödi kelmäginča er ölmäz külüg* – Shubhasiz, bu o'lim muhaqqaqdir, (ammo) vaqti-soati yetmaguncha mard bahodirlar o'lmaydilar (QBK 121₁₅). (Dadaboyev 2018, 243). Xalq dunyoqarashida vaqt-soat tushunchasi mavjud bo'lib, Olloh tomonidan berilgan umrning so'nggi nuqtasini, yashash vaqtining tugashini anglatadi.

Öd belgilangan muddat tushunchasini ifodalagan: *Jil aj öd*

bitisā kūni belgūlūg, azīrtlīy ačuqluy sanī belgūlūg – Yil, oy, kun vaqtini yozib qo'ysa, kuni ma'lum bo'ladi, aniq va ochiq hisobi ma'lum bo'ladi (QBK 156₂) (Dadaboyev 2018, 50).

Öd “ma'lum bir muddat” ma'nosini anglatgan: *Bu ödtā aʼzun öz özigā baqīp kevānīp sevīnīp edīñā baqīp* – Ayni damda dunyo o'ziga boqib, o'zining boyliklaridan quvonib, sevinib o'tiribdi (QBH 14₁₅) (Dadaboyev 2018, 98).;

ūdūn: Zamon, vaqt, muddat. DLT da vosita kelishigi bilan kelgan holati uchraydi. O'zaro yasalish asos va yasalma munosabatidagi leksemalar *ūd* va *ūdūndir*: Eski uyg'ur bitiklarida “vaqt, muddat ma'nolarini anglatgan. Bu eng keng tarqalgan tushunchalardan biri bo'lgan. Leksema odatda alohida ishlatilishiga qaramay, olmosh va kelishik qo'shimchalari bilan birgalikda qo'llanilgan. Bu leksema DLT (79-bet; 1-jild; 1960) da quyidagicha: DLT da vosita kelishigi bilan kelgan holati uchraydi; “od”ning bir shakli sifatida. *ōñrā ārtmīš üddā* bu *čambudivīp* ulušta *m(a)harate atl(ı)g elig han bar ārti* (AP 59-61) “Avvallari (bundan oldingi vaqtda) ushbu *Kambudivīp* mamlakati – *Maharate* otliq bir hukmdor bor edi”;

Turkiy tillarda *ūr* “uzoq vaqt, muddat”; *ūr*: “uzoq vaqt, davr” ma'nosidagi tub leksema qo'llangan; *ūdūn* bilan sinonim sifatida qo'llash mumkin. DLT da bu shakl uchramaydi: *inčīp olarnīñ arasīnda aqladı ʼtakı m(a)has(a)tve tegin ol barsnīñ açın torukın āmgākin tolgakın tetřrū kōrūp tāgrā tāgžīnīp kōzīn idi andıran keřārū umatın ūr keč tetřrū kōrū turup ötrū kodup öñi yorıp bardılar* (AP177-182) – “Shunday qilib, u ular orasida yig'lab yubordi. Shahzoda Maxasatve bularning ochligini, uning zaifligi va qiynoqlarini aniq ko'rib, uning atrofida yurib, u hech undan yuz o'girmasdan, uzoq vaqt ajratmasdan ehtiyotkorlik bilan qarab yurdi”.

Vaqt semali sodda yasama leksemalar: Har qanday tilning taraqqiyoti bilan bir qatorda uning sofliigi, milliyliigi va estetik xususiyatlarini saqlab qolish imkoniyatini beruvchi manbai bu o'sha tilning ichki manbaidir.

Ödlāk (turkiy) *so'zi* “taqdir” ma'nosida kelgan: *Bu ödlāk oqī birlā kōñli balīy* – Bu taqdir o'qidan ko'ngli yarimta (Dadaboyev 2018, 59).

Ödlāk “vaqt” ma'nosini anglatgan: *Mūsafir bolup mindi ödlāk atī* – Musofir bo'lib vaqt otini mindi (Dadaboyev 2018, 229).

“Vaqtни tanlamoq”, “vaqtни belgilamoq” tushunchasi *ödlā*= *so'zi* bilan ifodalangan: *Qalī elig ödlāp tilāsā seni, jorīq tüz tapuy qīl basīnma anī* – Agar hukmdor vaqt belgilab seni chaqirsa, to'g'ri xizmat qil, e'tiborsizlik qilma (Yusuf Xos Hojib 1972, 270).

Ödsüz (turkiy) bevaqt, vaqtsiz, vaqt-soati yetmasdan. *Kişi ödsüz ölmäs anadın tuyub* – Kishi onadan tug'ilib bemahal o'lmaydi (QBN, 2252) (Yusuf Xos Hojib 1972, 376).

Öñrä: öñrä ärtmiş üddä bu çambudivip uluşta m(a)harate atl(ı)g elig han bar ärti (AP 59-61) “Avvallari (bundan oldingi vaqtda) ushbu Kambudivip mamlakati – Maharateda bir hukmdor bor edi”. Üdün/ür: uzoq vaqt, davr. bilan sinonim sifatida qo'llangan. DLT da bu shakl uchramaydi. inçip olarnıñ arasında agladı ıakı m(a)has(a)tve tegin ol barsnıñ açın torukın ängäkin tolgakın tetrü körüp tägrä täğzinip közin idi andıran keřärü umatın ür keç tetrü körü turup ötrü kodup öñi yorıp bardılar (AP177-182) – “Shunday qilib, u ular orasida yig'lab yubordi. Shahzoda Maxasatve bularning ochligini, uning zaifligi va qiynoqlarini aniq ko'rib, uning atrofida yurib, yuz o'girmasdan, uzoq vaqt ajratmasdan ehtiyotkorlik bilan qarab yurdi. b) vaqt semali sodda yasama leksemalar: Har qanday tilning taraqqiyoti bilan bir qatorda uning sofligi, milliyligi va estetik xususiyatlarini saqlab qolish imkoniyatini beruvchi manbai bu o'sha tilning ichki manbaidir.

Vaqt konseptini umumlashtirib ifodalaydigan leksemalar ham mavjud. *Ogur* vaqt, muddat ma'nosini ham anglatadi. Bu leksema DLT (35; 2017) da quyidagicha ifodalangan: 1) ogur – omad, imkon, davlat. 2) ogur –vaqt; ne ogurda kelding – qay vaqt kelding. bir ugurta ol elig han üç oğlanı birlä taştın tagta arıgta ilinçükä bartı (AP79-81) shu fursatda o'sha hukmdor uchta o'g'li bilan ko'ngil ochish uchun tog'ga, o'rmonga chiqdi.

Eski turkiy til davrida vaqt konseptini ifodalovchi leksemalarning hozirgi o'zbek tiliga munosabatini quyidagi jadval orqali aks ettiramiz:

Eski turkiy til davrida vaqt konseptini ifodalovchi leksemalarning hozirgi o'zbek tilidagi muqobillari

Vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar		
Turkiy leksemalar	Konsept	Hozirgi o'zbek tilidagi nomlanishi
öd	vaqt	vaqt
üdün	zamon, vaqt, muddat	zamon, davr, muddat
ür	vaqt, muddat	zamon, davr, muddat
ödläk	vaqt, taqdir.	peshona
ödsüz	bevaqt, <i>vaqtsiz</i>	bevaqt
ödlä=	vaqtни belgilamoq	muddat, vaqtни belgilamoq
ölgüsüz	abadiy, mangu.	boqiy, mangu, abadiy
öñrä	oldin, avval	oldin, avval, ilgari, burun
ogur	vaqt, muddat	muddat

“Vaqt” konseptini ifodalovchi turkiy leksemalar turli semantik guruhlariga mansub.

1. *Inson yoshi bilan bog'liq “vaqt” konseptini ifodalovchi leksemalar.* Ma'lumki, vaqt inson ongining belgilovchi toifalariga kiradigan dunyo tasvirining tarkibiy qismlaridan biridir. Insonning o'z vaqtida o'zining borligini anglashi uning yosh davrlari (masalan, bolalik, o'smirlik va boshqalar) nomlarini bildiruvchi so'zlarning paydo bo'lishiga, shuningdek, uning tarjimai holi, uning alohida bosqichlarini (masalan, o'tmish) aks ettiruvchi so'zlarning vujudga kelishiga yordam berdi. Inson bolasi tug'ilganda chaqaloq, ulg'aygan sari o'smir, yigit, erkak, qariya deb atalgan.

Insonning vaqtga kora yosh darajasini ifodalash barcha turkiy tillarda saqlanib. Ammo yosh darajasini ifodalovchi leksemalar har xil miqdorda qo'llanadi. Qozoq, qitg'iz tillarida insonning yosh darajasini ifodalovchi so'zlar miqdori nisbatan ko'proq. Qaysi tilda leksemalar miqdori ko'p bolsa, shu til turli yosh darajalarini nisbatan to'liq aks ettiradi.

Avučya (turkiy) qariya, qari kishi. Avučya insonning keksalik davrini salbiy baho munosabati asosida ifodalagan: *Söküş boldi erkä avuçya atı* – Qari degan nom odam uchun haqoratga aylanib qoldi (QBK, 3849). *Avuçya* so'zi “qariyalar so'zi”, “maqol” ma'nolarida qo'llangan: *Negü ter eşitgil avuçya sözi*–Qariyalar so'zi nima deydi, eshitgil (QBK 254₁₇).

Eski turkiy til davrida yosh darajasini ifodalovchi *avuçya*, *kenč*, *kičig* so'zlari ishlatilgan.

Avuçya so'zidan yasalgan *avuçyalıq* insonning qarilik, keksalik davrini ifodalagan: *Jusuf čilbası jigittikkä ökünüp avuçyalıqın ajur* – Yusuf chilboshi yigitlikka afsuslanib qarilik haqida so'zlaydi (Dadaboyev 2018, 47).

Kičig “kichkina”, “kichik”. *Kičig* kichik yoshdagilarni umumlashtirib nomlagan: *Uluyqa kičigkä ačuq tuttı jüz* – Ulug'ga ham, kichikka ham ochiq chehra bilan muomala qildi (QBH 28₆).

Kičig so'zidan yasalgan *kičiglik* (turkiy) bolalik, yoshlik davrini bildirib kelgan: *Kičiglikdä mensiz qalır sen bu kün* – Yoshligingda mensiz qolarsan bu kun (Dadaboyev 2018, 195).

“Chaqaloq”, “go'dak” ma'nolaridagi *kenč* so'zi, inson rivojlanishining eng kichik, boshlang'ich davrini nomlagan: *Biligsiz bor içsä bolur kenč kičig* – Nodon sharob ichsa, go'dakdan ham kichik bo'ladi (Dadaboyev 2018, 190).

Eski turkiy til davridagi insonning yoshi bilan bog'liq

vaqt konseptini ifodalovchi leksemalarning hozirgi o'zbek tiliga munosabatini quyidagi jadval asosida ko'rsatdik:

Insonning yoshi bilan bog'liq vaqt konseptini ifodalovchi leksemalarning hozirgi o'zbek tilidagi muqobillari

Insonning yoshi bilan bog'liq vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar		
Turkiy leksemalar	Konsept	Hozirgi o'zbek tilidagi nomlanishi
Avučya	qariya, qari kishi.	Qariya, keksa
Kičig	kichkina, kichik.	kichik
Kičiglik	bolalik, yoshlik.	go'daklik
Kenč	chaqaloq, go'dak.	go'dak.

2. Yillik vaqt o'lchovining qismlarini bildiruvchi leksemalar.

Turkiy tillarda vaqtни qismlarga ajratib ifodalashning o'ziga xos ko'rinishlari mavjud. Eski turklarda yil ko'klamdan boshlangani uchun yilning birinchi oyi ko'klamning birinchi oyiga teng keladi. Yangi oy Oyning chiqqan kunidan boshlanadi. To'lgan Oyni tolun yoki *tolun ay* deyishgan. *Tolunning* lug'aviy ma'nosi to'liq, to'lishgan demakdir. Turklarda *Aytoldi* degan ot ham bo'lgan, ma'nosi to'lgan oy degani. Qutadg'u bilig qahramoni ham shu nom bilan yuritilgan.

Qadimda oylarga ot qo'yilmagan, ular o'z tartibi bilan aytilgan: birinč ay, ikinč ay, üçünč ay singari. Keyinchalik, turklar buddizm, moniylikni qabul qilganlaridan keyin ularga nom qo'ydilar, to'g'rirog'i, bu nomlar qo'shni tillardan o'zlasha boshladi. Qadimgi uyg'ur taqvimda uchraydigan oy otlari: aram ay // ram ay – qadimgi uyg'ur taqvimining birinchi oyi. Islom davridan turklar arab taqvimini qo'llay boshladilar va oylar ham arabcha atala boshladi. Masalan: *zulqa:da ayi, rajab ay, muharram ay* singari.

Qadimda xalq ichida chorvachilik va dehqonchilik bog'liq holda yuzaga kelgan oy otlari ham qo'llanilgan. Bu xususda Mahmud Qoshg'ariy shunday yozadi: (Turklarda) oy ismlari ham shaharlarda arabcha yuritiladi. Ko'chmanchi va musulmon bo'lmagan turklar oylarni to'rt fasl bilan ataydilar. Har uch oyni bir ism bilan yuritadilar. Yil o'tishini shundan biladilar. Masalan: navro'zdan keyingi avval bahorga *oğlaq ay, so'ngra uluğ oğlaq ay* derlar. Chunki oy bu vaqtda katta bo'lishiga asoslaniladi. Bundan keyingisiga *uluğ ay* deyiladi. Chunki bu yozning o'rtasida bo'lib, bu vaqtda sut va yer ne'matlari mo'l-ko'l bo'ladi" (Koshg'ariy 1960, 332).

Yil fasllari, asosan, turkiy so'zlar bilan nomlangan.

Jay so'zidan yasalgan *jajqi* "yozgi" ma'nosidagi so'z. *Üči jazqi*

julduz üç jayqı bil – Ulardan uchtasi bahoriy yulduzlar, uchtasi yozgi yulduzlar, bilgin (QBN, 138) (Yusuf Xos Hojib 1972, 82).

Küzki “kuzgi”, “kuz fasliga oid” degan ma’nodagi soʻz. *Üchi küzki julduz üç qışqı* – Ularning uchtasi kuzgi yulduz, uchtasi qishki (QBN, 138) (Yusuf Xos Hojib 1972, 82).

Oy nomlarining aksariyati turkiy soʻzlar bilan nomlangan.

Aj I vaqt birligi, 30 kunlik muddat. *Tükäl on sekiz ajda ajdım bu söz* – Bu soʻzlarni naq oʻn sakkiz oyda aytib (yozib) tugatdim (QBK 392₁₀). “30 kunlik muddat” ma’nosidagi *aj I* oy, qamar (yoritgich) ma’nosidagi *aj II* (Dadaboyev 2018, 20). soʻzidan metonimiya asosida yuzaga kelgan. Vaqt oʻlchovini, ma’lum me’yoriy muddatni anglatgan **aj** tushunchasi yerning sun’iy yoʻldoshining harakatiga, koʻrinishiga qarab nomlangan: *Qaju evkä kirsä bu aj terk čüüqar* – Oy qaysi burjga kirsä, yana tez chiqadi] (Yusuf Xos Hojib 1972, 164). Til egasi ongida bu tushunchalar oʻrtasida aloqadorlik mavjud boʻlib, hozirda bu munosabat sezilmaydi. Bu soʻzlar oʻzaro omonimik munosabatda, deb qoraladi.

Aj leksemasidan yasalgan *ajliq* soʻzi oy davomidagi muddat oʻlchovini bildiradi: *Ata arqasında tuyulsa oyul, ana qarni mänzil qač ajliq amul* – Bola otaning belidan (pushtidan) bunyod boʻlgach, ona qorni (rahmi) bir necha oylik sokin bir manzil boʻladi (Yusuf Xos Hojib 1972, 254). *Ajliq* soʻziga omonim hisoblangan, hozirda qoʻllangan “maosh” ma’nosidagi oylik soʻzi ham vaqtga aloqador, ya’ni bir oy muddat davomida beriladigan ish haqini bildiradi.

Künki “kungi”, “kundagi”: *Tükäl boldi ol künki barča tapuy* – Oʻsha kungi barcha ishlar bajarildi (Yusuf Xos Hojib 1972, 410). Hozirgi oʻzbek tilida *künki* soʻzi alohida ishlatilmaydi. *Oʻsha kungi* birikmasi va shunga oʻxshash birikmalar tarkibida kelib, voqea-hodisaning vaqtga koʻra belgisini ifoda etadi.

Eski turkiy til davridagi yillik vaqt oʻlchovi qismlarini bildiruvchi leksemalarning hozirgi oʻzbek tiliga munosabatini quyidagi jadval asosida yoritdik:

Yillik vaqt oʻlchovining qismlarini bildiruvchi leksemalarning hozirgi oʻzbek tilidagi muqobillari

Yillik vaqt oʻlchovining qismlarini bildiruvchi leksemalar		
Turkiy leksemalar	Konsept	Hozirgi oʻzbek tilida nomlanishi
Jayqı	yoʻz	yoʻz
Küzki	kuzgi, kuz fasliga oid.	kuzgi

Aj I	vaqt birligi, 30 kunlik muddat..	oy
Ajlīq	oylik, bir necha oylik muddat	oylik
Kūnki	kungi, kundagi.	kundagi

3. Shaxs faoliyatiga nisbatan olingan vaqt tushunchalarini ifodalovchi leksemalar.

Vaqt o'lchovida barcha xalqlarda va madaniyatlarda umumiy bo'lgan jihatlar mavjud. Shulardan biri o'tgan, hozirgi, kelasi zamon tushunchasidir. Bu o'rinda zamon tushunchasi nutq jarayoniga nisbatan olinadi. Nutq jarayoni sodir bo'lib turgan zamon – "hozirgi", nutq jarayoniga qadar bo'lgan zamon – "o'tgan", nutq jarayonidan keyingi zamon – "kelasi" deb yuritiladi. Nutq jarayoniga bog'langan zamon "lingvistik vaqt" tushunchasiga kiradi. Nutq amalga oshdimi – o'tgan zamon hisoblanadi: *Biz binar-seminarni hozir tugatdik*. Fikr ifodasida hozirgi zamon ma'nosini ifodalovchi so'zlar ham ishtirok etishidan qat'i nazar, o'tgan zamon bo'ladi.

Shu bois davriy vaqtni ifodalash uchun nutq jarayonidan kengroq tushunchani me'yor sifatida olish lozim bo'ladi. Biz "shaxs faoliyati"ni me'yor asosi sifatida belgiladik.

Eski turkiy til davrida shaxs faoliyatidan oldingi jarayonga ishora qiluvchi umumiy integral semali so'zlar qo'llangan: *ašnuqi* – *kečgü* – *kečki* – *burunyi* – *ozaqi*.

Ašnuqi "avvalgi" ma'nosidagi so'z. Shaxs faoliyatidan oldin aytilgan so'zga ishora qilgan: *Jana ašnuqi sözkä janyaj tejü, taqi qorqar erdim seña ijmänü* – Yana avvalgi so'zga qaytadi, deb hanuz xavotirlanib sendan qo'rqqar edim [Dadaboyev, 2018:42]. Bu o'rinda so'z "fikr", "gap" ma'nosida kelgan.

"Azalgi", "qadimiy", "eski" ma'nosidagi *kečgü* so'zi ham so'z (fikr)ning aytilish muddatini ifodalagan: *Edi kečgü söz bu mäðäldä kelir* – Juda qadimiy so'z bu masalda keladi (Dadaboyev 2018, 185).

Kečki so'zi "qadimgi", "eski" ma'nolarini anglatgan. Bu so'z dunyoning vaqtga nisbatan belgisini anglatib, yaratilish nuqtai nazaridan eng qadimgi davrlarga ishora qilgan: *Eđi kečki dünja turur bu qarī* – Bu dunyo juda ko'hna, qaridir (Yusuf Xos Hojib 1972, 796).

"Burungi, qadimgi, dastlabki" ma'nolaridagi *burunyi* so'zi "ilk", "birinchi" degan tushunchalarni ifodalagan: *Biziñ tilimizkä burunyi uquš-* (Bu kitob) bizning tilimizdagi (turkiy tildagi) birinchi donishmandlik kitobidir [Dadaboyev, 2018:83].

"Avvalgi", "burungi", "qadimgi" ma'nolaridagi *ozaqi* so'zi nutq jarayonidan oldin ifoda etilgan tilakni sifatlab kelgan: *Elig qođti emdi*

ozaqi tiläk – Hukmdor avvalgi tilagini qo'ydi (Yusuf Xos Hojib 1972, 740).

“Ertangi (kun)” ma'nosidagi *jarinqi* “kelajak” tushunchasini anglatgan: *Nečä-mä eräžlänsä esiz bu kün, ökünč birlä emgär jarinqi künün* – Bu kun yomon qancha rohatlansa, ertangi kunida o'kinch bilan mashaqqat chekadi (Yusuf Xos Hojib 1972, 190). *Jarīnliq* “ertangi” ma'nosini ifodalagan: *Meni kör usanma jarīnliq iş et* – Menga qara, beparvo bo'lma, ertangi ishingni bajarib qo'y (Dadaboyev 2018, 156). *Halal jegli qılmas bajatqa jazuq halal je halal qıl jarīnliq azuq* – Halol yeyuvchi Tangri oldida gunoh qilmaydi, (hamisha) halol yegin, kelajak moyasini halol qilgin (Dadaboyev 2018, 52).

“Ertaga” ma'nosidagi *jarin I* so'zi ham aniq ertangi kunni emas, “keyin”, “kelajakda” degan ma'nolarni bildirib kelgan: *Bu kün munda ersä jarin anda* – Bugun bu yerda bo'lsa, ertaga u yerda (Dadaboyev 2018, 156). Shu so'zning omomnim shakli hisoblangan “yelka”, “kurak” ma'nosidagi *jarin II* so'zi “orqa” semasiga asosan vaqt bildiruvchi leksemaga aloqadordir: *Beli bolsa jilmıq jana jarini keñ* – Beli ingichka, yelkasi keng bo'lsa (Yusuf Xos Hojib 1972, 462).

Ertä “erta”, “barvaqt” kunning boshlanish qismidagi vaqt nomidir: *Jatip ertä qopyan qutın arturur* – (kech) yotib erta, barvaqt turgan baxtini orttiradi (Yusuf Xos Hojib 1972, 270).

“Vaqt”, “lahza” ma'nosidagi turkiy *tuş* eski turkiy til manbalarida qisqa vaqt, muddatni ifodalab kelgan: *Tapın bir bajatqa tuşı tınmadın* –Yolg'iz Allohga hech vaqt tinmasdan ibodat qil (Dadaboyev 2018, 348).

Hozirgi davrda *tuş* qisqa muddat, “lahza” ma'nosida qo'llanmaydi. Bu ma'no fiziologik jarayon bo'lgan *tush* leksemasida aks etadi. *Tushday o'tib ketdi* degan o'xshatishda “lahza” ma'nosi yaqqol seziladi. Bu leksemaga omonim sifatida “payt, “kun chiqqandan keyingi vaqt” ma'nosidagi *tuş* qo'llanadi. Bu ma'no qadim davrlarda kuzatiladi, “Oltin yorug”da “imkoniyat, fursat”; “vaqt, muddat” ma'nolaridagi *tuş* uchraydi: *biröq og'ulum bu tušta tirig äsän kavıssar ölsär mänin ätözüm ämgänmägäym(ä)n arıtı* (AP 429-431) “Agar o'g'lim shu fursatda sog'-salomat kelsaydi, mening tanam umuman azob chekmasdi” (Oltin yorug' 2013).

Hozirgi o'zbek tilida uyqu holatidagi psixologik tasvir-jarayonni anglatuvchi “tush” leksemasi bevosita ushbu tuşning ayni tildagi semantik varianti hisoblanadi. Ya'ni tush ko'rishning qisqa fursatda, imkoniyatda kechishi asosiy integral sema vazifasini o'tamoqda.

Kečä kechqurun kunning qismini bildirib, quyosh botgandan

keyingi paytni ifodalab kelgan: *Kečä jatza taŋta jana ač turur–Kechqurun yotsa, tongda yana och holda turadi* (QBH 103₅).

Kečä asosidan yasalgan **kečägi** (turkiy) “kechqurungi”, “tungi”, “kechagi” ma’nolarini bildirib kelgan: *Kečägi tüšünkä jörügi adin* –Kechagi tushingning yo’rig’i boshqa (Dadaboyev 2018, 185).

Eski turkiy til davrida shaxs faoliyatiga nisbatan vaqt tushunchalarini ifodalovchi leksemalarning hozirgi o'zbek tiliga munosabati

<i>Shaxs faoliyatiga nisbatan olingan vaqt tushunchalarini ifodalovchi leksemalar</i>		
Turkiy leksemalar	Konsept	Hozirgi o'zbek tilidagi nomlanishi
Ašnuqī	avvalgi	avvalgi
Kečgü	azalgi, qadimiy, eski	qadimiy, qadimgi
Kečki	qadimgi, eski	qadimgi
Jarinqī	ertangi	ertangi
Burunyī	“burungi, qadimgi, dastlabki”	qadimgi
Ozaqī	avvalgi, burungi, qadimgi.	qadimgi
Jarīn	ertaga	ertaga
Jarīnliq	ertangi	ertangi
Ertä	erta, barvaqt	barvaqt
Tuš	vaqt, lahza.	lahza
Kečä	kechqurun	kechqurun

4. Noaniq vaqt o'lchovini bildiruvchi leksemalar.

“Vaqt” konseptli leksik birliklarning ma’lum qismi noaniq muddat tushunchasini bildiradi.

“*Bir qancha vaqt*” ma’nosidagi **anča** uzoq muddatni ifoda etadi: *Usuz jattī saqīnu bir anča oduy* – Bir qancha vaqt bedor, tetik va uyg’oq yotdi (QBN 351₁₄). *Namaz qildi jattī tōšäkkä kirip, bir anča uđidi ol anča erip*–Namoz o’qidi, to’shakka kirib yotdi, bir qancha vaqt ko’ngli buzilib yotdi (Dadaboyev 2018, 29).

Ančan “shuncha”, “shu qadar”, “ancha mahal” ma’nolarini bildiradi: *Qaju iš qilip bulmasa ol tatīy qodi bergü ančan aj bilgi batīy* –Kim biror ishni qilib undan zavq topmasa, uzoq muddatga uni tashlash kerak, ey bilimi chuqur (Dadaboyev 2018, 29).

“Doimiy”, “uzluksiz”, “davomiy” ma’nolaridagi *kesüksüz* doimiy muddatga ishora qilgan: *Meniñdin bularqa üküš miñ sälam, tegürgil iđim sen kesüksüz ulam* – Mendan bularga ko’pdan-ko’p

salom, ularga davomiy yetkazgin, ey mening egam (Yusuf Xos Hojib 1972, 72).

“Ochiq-oydin”, “yaqqol”, “belgilangan vaqt” ma’nosini anglatgan *belgölüg ish-harakatning belgisini bildiruvchi so’z bo’lib*, “vaqt” *semasiga egadir: Kičig ja uluy tut ne čabliý külüg tapuyčï tapuyčï turur belgölüg* –Kichik yo ulug’ni birdek hurmatli deb bil, xizmatchilarni xizmatini aniq qil (Dadaboyev 2018, 68).

Keč I “uzoq vaqt”: Özi keč tirilsü jazılsu atı –O’zi uzoq yashasin, nomi tillarda doston bo’lsin (QBH 63₆). *Keč II kech. Keč jat jana ertä tur* – Kech yot, yana erta tur (QBH 60₂₆). *Keč=* (turkiy) o’tmoq, kechirmoq, yashamoq. *Jigitlik kečär ol tiriglik uçar* – Yoshlik o’tadi, umr uchib ketadi (Dadaboyev 2018, 185). Bu so’zlar hozirgi kunda omonim deb qaralsa-da, bir-biriga bog’liq bo’lgan leksik birliklardir.

Eski turkiy tildagi “vaqt” konseptini ifodalaydigan ayrim leksemalarning hozirgi o’zbek tilida muqobili yo’q. Inčlik (turkiy) bo’sh vaqt. Bu kün buldum inčlik seňä kelgüka – Bu kun sening oldingga kelish uchun bo’sh vaqt topdim (Dadaboyev 2018, 136). Bu so’z hozirgi o’zbek tilida muqobiliga ega emas.

Noaniq vaqt o’lchovini bildiruvchi leksemalarning hozirgi o’zbek tiliga munosabati

Noaniq vat o’lchovini bildiruvchi leksemalar		
Turkiy leksemalar	Konsept	Hozirgi o’zbek tilidagi nomlanishi
Anča-	<i>bir qancha vaqt.</i>	ancha
Ančan	shuncha, shu qadar, ancha mahal.	ancha
Kesüksüz	doimiy, uzluksiz, davomiy.	doimiy
Belgölüg	ochiq-oydin, yaqqol, belgilangan vaqt.	belgilangan vaqt
Keč I	uzoq vaqt	uzoq vaqt
Inčlik	bo’sh vaqt	bo’sh vaqt

5. Til egasining bahosini ifodalovchi leksemalar

Ma’lum lesemalar til egasining bahosini ifodalashga xizmat qiladi:

Kečimlüg o’tadigan, ko’chuvchi, foniy. Aj elig bu dünja kečimlüg turur – Ey hukmdor, bu dunyo foniydir (Dadaboyev 2018, 186).

Ölgüsüz abadiy, mangu. Sözüñ edgü sözlä özün ölgüsüz – So’zingni ezgu qil, ana shunda abadiy qolasan (Dadaboyev 2018, 248). Ushbu leksemada ham vaqtning uzluksiz, davomli ekanligini

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti
ifodalangan.

Eski turkiy til manbalarida “vaqt” konseptini ifodalovchi arabcha leksemalar ham uchraydi. Lekin bu tildan olingan so'zlar kam miqdorni tashkil qiladi.

Noaniq vat o'lchovini bildiruvchi leksemalar		
Turkiy leksemalar	Konsept	Hozirgi o'zbek tilidagi nomlanishi
Keçimlüg	o'tadigan, ko'chuvchi, foni.	foni
Ölgüsüz	abadiy, mangu.	abadiy, mangu

Eski turkiy tildagi temporal birliklar, asosan, turkiy qatlamga mansub. Bu davr tilida arabcha leksemalar ham, kam bo'lsa-da, ishlatiladi.

Sa'at (arabcha) soat, vaqt. *Tişi suhbāti-me bu erlik oti, öçürmək üçün ol birär sa'atī* – Ayol bilan suhbatda erkaklik o'tini o'chirish uchun ma'lum vaqt kerak (Yusuf Xos Hojib 1972, 554).

